

# AHMAD A'ZAM

## BU KUNNING DAVOMI

### *Qissa*

Kvartirantga borasan, ishga kelasan, ishga kelasan, kvartirangga borasan — torgina yo'lakdan chiqmaysan; tegrangda—dunyo, katta hayot, sen esa yo'lagingda dimiqib, jasadningni sudrab borib-kelaverasan; yana o'y o'ylaysan: oldinda o'zingni nimalar kutayotganini bilishga urinasan...

Uyoqda, qishloqda kekxa otang ertadan-kechgacha mehnat bilan band; qo'li bo'shasa seni duo qiladi: "Shu o'g'limning yo'lini och!.."

Yo'ling berkmi?

Kayvoni onang salobatingdan g'urur aralash cho'chidi: "Hali o'g'lim bir katta odam bo'lsinki!.."

Bo'larmikansan, bo'larmon bola?

Onangning: "Sen qatorilar...", deb ran boshlagani zahoti ko'ziga yosh keladi, biladiki, yig'lab aytmasa, jerkib tashlaysan. Sho'rlik hech tushunolmaydi, nega uylanmaysan axir, deyaveradi. Bilmaydiki, uylanish husnini tovoqqa solsa yo solmasa ham bo'ladigan, o'zi tagli-tugli—onasi undoq, otasi mundoq qiz bilan bir yostiqa bosh qo'yishning o'zidagina iborat emas. Axir, uylanish uchun o'rtada... Xullas, turmush qurishning nimaligini, qanday bo'lishi kerakligini otang bilan ellik yildan buyon (taxminan shuncha deydik) san-manga bormay, tinchgina yashab kelayotgan onang bilmaydi, sen bilasan. Juda bilib olgansan, shuning uchun ham uylanolmaysan. Otangdan ham bir so'rab ko'rsang bo'larmidi: ota, siz onamni ko'ngil kqo'yib olganmisiz yo rahmatli katta onam shu qizni ol desalar, olaverganmisiz, deb. Otang qulog'ingning tagiga o'xshatib tushirarmidi! So'ramaslikka aqling etadi: o'zbekchilikningmi, muhabbatningmi mevasi bo'lib, sakkizta odam bir qorindan talashib tushgan, shulardan eng noqobili, gapga kirmaydigani — sensan, kenjasi.

Bir tomondan o'ylaysan: kampir odam, uylanmayotganim unga katta armon, ehtimol, so'nggi, umri uzoq bo'lsin-u, so'nggi armonidir, odam hayotga bir marta keladi; kampir ham qarigan chog'ida yana qaynonalik huzurini ko'rsin, mendan inoyat, uylanib yuborsammi, deysan, akalar uy qilib chiqib ketishgan, opalar "otilgan joyiga toshdek tushgan", hovli bizga qolgan, chol-kampirning holidan xabar olish — bizga tan, degan tuppa-tuzuk hayollarga ham borasan.

"Oq uy — oshxonasi yo'q." Shu gapni birinchi marta eshitganingda, qanday dono ran, turmush — oq uy, kaminada faqat oshxona yo'q ekan, kampirilar bunaqa gaplarni qaydan topadi-ya, deb ajablangansan. Lekin ko'p eshitaverganingdan

keyin “oshxona solish”dan yuraging bezillab qolgan. Ichingda bir o’rlik paydo bo’lib, go’yo uylansang, tutgan yo’lingdan chekinib, odamlarning gapi bilan yashaydigandek.

Odamlar ham tinch qo’yishmaydi lekin, hadeb so’rayverishadi: “Qachon, qachon...”

E tavba, deysan, kim uylanishi kerak o’zi: uylanmagan yigitmi yo uylangan odamlarmi? Uylanish menga kerak-ku, nega boshqalar buncha kuyib-pishishadi? Uylanmagan yigit sho’rlikni nega o’z holiga qo’yishmaydi? Uylanar, axir!

Fikrdan fikr tug’ilib, bir uylanmagan yigitga boshqa uylangan odamlarning munosabati haqida astoydil o’yga tushasan-da, bu yigitning o’zing ekanliging, o’zingning uylanishing kerakligi esingdan chiqib ketadi. O’sha, haligacha uylanmay, qaysarlik qilayotgan yigit yonini ola boshlaysan...

Issiq, havo juda ham issiq edi. Osmon, ko’m-ko’k bulutdek, erni bosib, daraxtlar issiqdan quruqshab, hozir, mana, hozir gur-r etib alanga oladiganga o’xshar edi.

Mashinalar shovqini ko’rinmas quvurga qamalib, faqat ko’chaning ustida guvlardi, go’yo ko’cha tepasidagi ko’kimtir g’ubor uning taralib ketishiga imkon bermayotgandek.

Juda issiq. Bironta ham yaproq qimirlamaydn. Odamning olgan nafasi ichiga issiq hovur bo’lib quyiladi. Stolga qo’lini qo’ysa, chip etib yopishadi. Ichgan choyi, xuddi badani g’alvirdek, ter bo’lib sirqib chiqadi.

Saraton.

U sochining orasiga kqo’l yuborib ko’rdi, boshi qizib ketibdi: xuddi novvoyning hozir tandirdan chiqqan boshidek. Issiqdanmi yo ko’p o’ylaganidanmi?

Burungilar xo’p aqlli bo’lgan-da: sochni taqir qirdirib, kalla jonivorni salqinlatib yuraverishgan...

Nihoyat telefon jiringladi. U shoshganicha trubkani ko’tardi, hali uni qulog’iga tutganicha bo’lmay, hayolidan, yo’q, o’sha qiz emas, bu boshqa odam, degan tuyg’u o’tdi. Rostdan ham boshqa odam ekan, adashib tushibdi.

— E yo’q, bu er boshqa... E-e, bilmayman, bilmayman, deyapman-ku.

U trubkani sharaqlatib joyiga tashladi. Qanaqa odamlar o’zi, ularga kerakli nomerni men qaydan bilaman?!

U, xuddi shu kulrang quti gapirib yuboradigandek, telefonga tikildi. Xona yorug’ida xira tovlanayotgan telefonning sirtida o’sha qizning uni yo’qlamasligini bildiradigan nimadir bordek edi.

U derazaga ko’z tikdi: daraxtlarning tek qotib turishida ham, ko’chaning bo’g’iq shovqinida ham uning kutganidan bilgi beradigan biron alomat, sezim yo’q edi.

Shunaqa ishlarning bo'lish-bo'lmasligini odamning ko'ngli oldindan sezadi. U o'sha qizning telefon qilmasligini aniq bilib turibdi, lekin umidini uzgisi kelmaydi, qattiq umid qilsa, umid bilan telefonga qattiq termilib turaversa, intizorligi o'sha qizga borib etadigandek. Hozir shu daqiqada, bo'lmasa, sal keyin, bugun, bugun bo'lmasa, ertaga. Axir, sen bir odamni butun borlig'ing bilan o'ylab, hayolan qattiq, chorlab tursang-da, o'sha odam tamomila sezmasa, sen haqingda mutlaqo o'ylamasan... Hech bo'lmaganda, qulog'i qizir?

Shu bitta narsaga yopishib olib, boshqa narsani o'ylamasligim yomon-da, deb o'yladi u. Endi shu o'ydan qutulolmayman. Miyamning qatig'i chiqib ketguncha o'ylayveraman. O'sha qiz yo telefon qiladi, yo qilmaydi. Shunday ekan, bittasi bo'ladi-da, deb xotirjam o'tirsam, kitob-pitob o'qib kutsam yaxshi bo'lmaydimi-ya? Yo'q, kallamga boshqa hech narsa kirmaydi, telefon qiladimi, qilmaydimi, deb o'ylayveraman, o'ylaveraman, o'ylayveraman... E, ming la'nat-e o'sha qizga, agar poshshoning qizi bo'lsayam! Ishlik odamni shunaqa ahvolga soladimi? Bir kunimni o'ldirdi. Va'da bergandan keyin so'zining ustidan chiqishi kerakmi, axir? Men senga yalinganim yo'q edi, o'zing telefonimni yozib olding, kutint, deding. Birovni bekordan-bekorga umidlantirish insofdanmi, axir? Nozingdan o'rgildim, ho' o'sha seni... ajuva! Tannozi! Duch kelgan yigitning telefonini yozib oladi-da, yana kuttiradi...

U telefonga tikilganicha hayolan dag'dag'a qildi, o'sha qizning shaniga, uni pastga urib, ancha-muncha gaplarni to'kib soldi, alamini engmoqchi bo'ldi.

Telefon ham muqarrar zarbadan o'zini himoyalab, boshini qo'li bilan panalaganicha, g'ujanak bo'lib yotib olgan odamchadek ko'rinardi.

Shunaqa ham bema'ni havo bo'ladimi! Issiqni! Odamning ichini qaynatib yuboradi.

U sigaret ezg'ilab xonadan chiqdi. Telefon jiringlasa, eshitmay qolmay, deb eshikni ochiq qo'ydi. Koridorning oxiriga, deraza tagiga borib tutatdi.

Ana, Sobirvoy ham chiqdilar. Bitta kerishing, bitta kerishing... E rahmat-e, aka! Hozir qo'llarini silkitadilar. Ha, ana, silkitdilar. Endi biz tomonga keladilar. Ha, shunday: ko'p ishlab charchagandek... devordan boshqa narsani ko'rmasangiz ham uyoqqa, endi buyoqqa ko'z tashlang, barakalla... keldnngizmi, endi uf torting, tartib buzilmasin-da, yaxshi, xo'p, ana, endi sigaret so'rang, so'rayvering, o'rganib qolganmiz, zaharni ham qizg'anamizmi-ya...

— Uf, qani, zaharingizdan bizga ham...

U Sobirning so'rovi tugamay, unga sigaret tutdi. Sobir avval sigaretning yozuvlariga razm soldi, ko'ngil to'ldi shekilli, mamnuniyat bilan:

— Xo'-sh—dedi.

Qalayman?

— Qalaysiz, oshna?—dedi Sobir.

U, kam deganda amlokdorning mulozimga marhamat ko'rsatishdek, iljayib bosh irg'adi, javobi shu bo'ldi.

Ishlayapmanmi?

— Ishlayapsiz?

— Yo'q, chekyapman.

Sobir bir qarab qo'ydi-da, uning sigaretiga qo'l cho'zdi.

- Tutataylik.

Sigaretni ham harom qildi. Tishlanadigan joyidan ushlaydi-ya!

Boshladikmi deyman.

— Bugun direktorga ro'para kelmadingizmi, ishqilib?

— Nima edi?— deb so'radi u, Sobirning bu savolni nimaga berganini bilib tursa ham.

— E-e, ikki kunga javob so'rab kiruvdim...

Boshladik.

— ...Bir oldi, bir oldi! Shu-u, o'lib-tirilib ishlaysan-ishlaysan, rahmat yo'q, buning o'rniga...

Ke-tdik! Direktorning qartasini aylantiramiz! Direktorning qartasi yaxshi — har qancha qo'ysang ham zerikmaysan odam.

Tilab chekkaniga, bu ham mayli, tinchgina o'y o'ylatmaganiga yarasha, gapirmay tursa o'larmikan? Balki o'lib-tirilishining hech kimga qizig'i yo'qdir.

Hey inson, menga qara, nima qilasan hasratingni oyoqosti qilib; men senga dardimni yormayapman-ku, balki mening dardlarim senikidan ko'proqdir; chidayapman-ku...

Shu-da, qanday edi? Ha: “Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas, meni istar kishining suhbatini ko'nglim pisand etmas”. Malikul kalomni ham g'iybatga to'ydirib yuborishgan shekilli... Agar u kishi bizga direktor bo'lganlarida edi, ularning qartalarini ham rosa aylantirardik: nega uylanmaydilar, Xondamirning yozganiga ishonib bo'lmaydi, bu erda boshqa ran bor, ishqilohiy o'z yo'liga lekin Malikul kalomning uylanmasliklari...

Xonada chekish ta'qiqlangan. U har soatda shu erga chiqshga majbur. U chiqsa, poylab turgandek, balki poylar, manavi ham chiqadi. O'zi sotib olsa, ko'p chekib qo'yar emish. Yashavor! Tashlamoqchilar. Shu gapni takrorlayotganiga ham bir yil bo'ldi. Shunchadan beri tilab chekadilar va doim tashlamoqchi ekanliklarini pisanda qiladilar. Qoida bo'lib qolgan: xo-nasidan chiqadi-da, keladi, yo'q, chiqqandan keyin avval kerishadi, go'yo do'stini ko'rganidan quvongandek, qo'lini tepaga ko'tarib qutlaydi, keyin keladn, sigaret so'raydi, shundan yo oldin, yo keyin uf tortadi, tutatadi-da... E, mayli, u sigaretga achinmaydi, gap tamakining pulida emas, shu zaharni o'zing sasitding nima, ikkovlashding nima? Insof bilan

aytganda, Sobir uning sigaretidan ikkita yo uchta, boringki, to'rtta chekar, shu bilan kambag'allashib qolmaydi. Mayli, cheksin, lekin gapirmay cheksa-da. Axir, u Sobirning ko'ngliga qaznoq emaski, neki ichiga sig'masa, olib kelib tiqib qo'yaversa...

U har chiqqanada Sobirni ko'rmayin, deb yuragini hovuchlab turadi. Yana shunisi ham borki, Sobirni ko'rmasa, ko'ngli alagda ham bo'ladi: chiqadimi, chiqmaydimi... chiqmasin-da... bari bir chiqadi... yo chiqmasmikan... chiqsa-chiqsin-e, bunaqa fol ochib o'tirgandan ko'ra, chiqqani yaxshi... Bordiyu Sobir chiqmasa (ishlik odam, senga o'xshab kun-uzun-kun telefon poylamaydi, ishlaydi) u boshqacha o'ylay boshlaydi: nima ham qilsin, dardini hammaga ham yoravermaydi-ku, ishongani men; rostdan ham mehatkash, o'lib-tirilib ishlaydi, lekin direktor bilan orasi chatoq, dovon oshay deb turibdi, bir himo berilsa, bas edi... To sigaretni yolg'iz chekib bo'lguncha Sobirvoy — Sobir jo'ramga, yozg'irish — mehrga aylanadi.

Sobir u sigaret chekayotganda chiqmasa — yaxshi odam. Lekin aksar paytlari chiqadi, u bahona, bu bahona, ran boshlanadi-da, bironta boshliqroq: sektor mudiri Inoyatov, ilmiy kotib Nurillaev, direktor o'rinbosari Quvvatov, yo direktorning jiyani Ilhom, Avvalboy to'g'risida “har kim har narsa deb o'ylashi mumkin-u, lekin aslida to'g'ri gaplar” qo'zg'aladi-da, ko'pincha direktorga kelib taqaladi. U avvaliga Sobirning diydiyosini “tishini tishiga bosib” eshitgan bo'ladi, Sobir o'zining “shunday-shunday” mashaqqatlarini sanayvergandan keyin bir oz yumshaydi-da, o'zi ham sekin gapga tushadi: sal balandroq turib, sal bosiq va sal betarafroq bo'lib, bir vaqt qarasa, hangomaning jilovi o'zining qo'lida: u gapiryapti, Sobir ora-sira qo'shilib, bosh irg'ab tasdiqlayapti. Gapingni birov ehtirom bilan tinglagandan keyin... “g'iybat emas, oshna, juda to'g'ri gaplar...” “Qarang, men ham shuni aytmoqchi edim, lekin boshqacha tushunasizmi, deb...” Shunaqa paytlari Sobir uning ko'ziga elkadosh, haqiqatgo'y do'st bo'lib ko'rinadi...

— Ikkovining orasi yomonligini tush ko'ribmanmi? Akobirov ham o'qib chiqdi, ma'kul, dedi, resenziya yozib beradigan bo'ldi, deb aytgannmni bilaman, shu-u, baqirib ketdi...

— Bilmasmidingiz?

— Qaydan bilaman?

— Bilardingiz-ku, o'zingiz ham lekin...

— Hay, bilganimda-chi, bari bir emasmi? Ularni men urishtirdimmi yo mening ustimda urishishdimi? Ikki qo'chqor suzishsa, men — qo'zida nima gunoh?

— Qo'zi emas, kattagina tukli bo'lib qoldingiz siz ham. Besh minuti kam qo'chqorcha.

— Direktor qo'ysa. — Sobirga bunaqa gaplar yoqadi. — Qo'ymayapti-da. Nima qilay — bordim o'sha Akobirovining oldiga

— Maqola chiqadimi, ishqilib?

— Chiqadi,— dedi Sobir ochilib.— Yuramanmi, jonga tegdi. Shu maqola chiqsa — bo'ldi, publikasiya to'ladi. Direktorning o'ziga necha marta aytdim. Familiyasini qo'yib, o'qitdim. Hali u deydi, hali bu. E-e, qay birini ayta...

— Aytuvdingiz.

— Muhokamaga qo'ydirsa, qochib ketganim yo'q, zamechanielarini keyin ham qilaveraman.

— Hali muhokamadayam...

— Shu-da, ishning hozirgi turishidan yarmi ham qolmaydi.

— Kim o'qisa, bitta ma'qulga ikkita noma'qul qo'shadi.

— Misir akaning kitobi muhokamasida bormidingiz?

— Yo'q, nima edi?

— Avvalboy ham so'zga chiqibdi.

— Yo'g'-e, bahay?

— Qo'yavering!

— Nima deyaptilar? O'zlaricha. kitobga uni qo'shish kerak, buni olib tashlash kerak, degandilar?

Sobir unga o'pkalangannamo qaradi:

— Shu Avvalboy, a?! Osmonga olib chiqdiyu tagiga sakkiz qavat ko'rpacha to'shadi.

— Muncha? Misir akaning kitobi ma'lum narsa-ku.

— Nima qipti? Avvalboy shu kelayotgan kengashda yoqlaydi.

— Yo'g'-e? Eshitmabman.

— Sizga eshittiradimi? Imi-jimida bitiradi ishini. Albatta, men ham direktorning uyidan chiqmay, bozor-o'charini qilsam, poligacha yuvib bersam, allaqachon yoqlagan bo'lardim.

— Ja, unaqa... polini yuvmas-e,—deb u o'zini hayronlikka soldi, bu gapni Sobirdan yuzinchi marta eshitayotgan bo'lsa-da.

— Yuvmaydi?! E-e, yuribsiz-da, siz ham, hamma narsaga to'g'rincha erishaman, deb...

Avvalboyning shu kelayotgan kengashda yoqlashi u uchun yoqimsiz bir yangilik bo'ldi. Eshitgan soniyada qulog'iga o'rnashmadi, endi esa nash'a qildi: obbo Avvalboy, Avvalxo'ja, Avvalchik, Avik, Av... hammamizdan oldin yoqlar ekansiz-da...

Birovga hasad qilish yaxshi emasligini bilib tursa ham ko'nglidagi tuyg'uni tiya olmadi, aksincha, erk berdi.

— Avvalboy shunday yaratilganki,—deb salmoq bilan ran boshladi u, o'zini loqayd, hamma narsadan, yoqlashlardan baland tutishga urinib,— agar shunday qilmasa, ilmni tashlab, otasining yonida cho'ponlik qilishi kerak. Bo'lmasa, kun ko'rolmaydi.— Bu gaplari o'z ko'nglidagi kirpitikanning tikanlarini o'ngiga silagandek, taskin topdi: Avvalboyga o'xshab yoqlagandan ko'ra o'lgani yaxshi...

Sobirning ko'zlari yiltilladi:

— Men bilan o'qigan...

— Bilaman, aytuvdingiz...

— Nima ran chiqar ekan, deb doim og'zimni poylar edi. Diplom ishini ham bizga o'xshaganlarning og'zidan tushib qolgan gaplardan terib yozgan. Ishonmaysiz-a?

— Aytuvdingiz, aytuvdingiz,— dedi u betoqatlanib: Avvalboy haqida boshlagan gapining davomi uzun edi.

Biroq Sobir unga gal bermadi:

— Hech e'tibor qilganmisiz: qaysimiz bilan gaplashsa, gapni darrov temasiga buradi. Men bir og'iz gapiraman, siz bir og'iz... Uning qulog'i lokatordan ham yaxshi ishlaydi. Qarabsizki, mana, uch yilda dissertasiya tayyor.

— Qoyil bo'lish kerak lekin,— dedi u Sobirni gapdan to'xtatishga chog'lanib.

— Nimasiga qoyil bo'lish kerak? Bunaqada siz o'nta dissertasiya yozib tashlar edingiz.

— Men bunday qilolmayman.

— Men ham bunday qilmayman.

— Avvalboy ojiz odam-da. Boya aytdim-ku, Avvalboy...

— Ojiz?! Yoqlasin, keyin qanaqa ojizligini ko'rasiz!

— Men ilmni aytyapman.

— Men ham. Diplomni olgandan keyin unga ojizsan, deb ko'ring-chi! Hozirdanoq burniga xoda etmaydi. Nima, savlatdan bor, qorindan bor...

— Faqat kalladan yo'q,— dedi u g'ashlanib.

— Menga qilgan nasihatini qarang: Akobirovga bekor boribsiz, domlamizning tuzlug'iga tupurish bu, deydi!

— Shunaqa...

— Borganimni ham shu etkazgan domlaga.

— Siz ham qiziq. Shunaqa odamlarga nega sir berasiz? Sotadi-ku!

— E-e, quvonib ketibman-da. Ishingiz nima bo'lyapti desa, Akobirovga borganimni aytib yuboribman.

Bu bechoraning ham maqtangisi kelgan: unisi yaqinda yoqlashini aytgan bo'lsa, bunisining ham kam ko'ringisi kelmagan...

— Avvalboyni qo'ying. Ilmni faqat buyuklar yaratmaydi. Aksincha, uning asosiy yukini men bilan sizga o'xshagan o'rtachalar,—deb achchiq huzur bilan ta'kidladi u,— ko'taradi...

Avvalboylar-chi? Nima desa ekan? Avvalboy bo'lmasa, direktorning bozor-o'charini kim qilib beradi, polini kim yuvadi? Sobirmi? Sobir-ku, jon-jon der, lekin bir kun yuvsa, o'n kun hasrat qiladi. Yo'q, direktor sobirlarga polini yuvdirmaydi, u ham kimga yuvdirishni biladi. Mengami? Men direktorning polini yuvar ekanmanmi? Hecham-dal Yana ham... bilmadim. Odam qiyin sharoitga tushguncha og'zibotirlik qilaverishi mumkin, lekin,, Yaxshi hamki, Avvalboyga o'xshaganlar bor. Aks holda, Avvalboyning o'rnida bo'lishga to'g'ri keladi, yo,,. Yo'q, boshqa Avvalboy bari bir topiladi. Dunyo shunaqa: ish joyi bo'sh turmaydi, odamlar bo'sh turishi mumkin.

Nimagadir juda gapirgisi keldi. Aytmoqchi bo'lgan gaplari aytmassanoq, halitdan, tiniqib, fikri balandlab ketayotgandek tuyuldi.

— Ilm ham, Sobir, ilm ham, direktorimiz aytgandek, muhtasham bir imorat... Bu imorat tiklaydigan Usta bor, — dedi, — Siz — qora ishchi, ish kuchisiz.— Og'ir kunda Sobirni yolg'iz qoldirmaslikka va'da berayotgandek, “men ham”, deb o'zini qo'shib qo'ydi.— Qora ishchilar imoratning loyini qiladi, g'ishtini quyadi.

— Avvalboy tayyorini ustaga uzatib turadi,— dedi Sobir alam bilan,

— Yo'q, Avvalboyning ishi boshqa. Loyini ham, g'ishtni ham o'zimiz uzatamiz. Usta bizning loyimiz, g'ishtimizdan imoratni tiklayveradi.

— Avvalboy-chi?— dedi Sobir beozor istehzo bilan.

— Hozir. Shoshmay turing. Aytaman... Bir vaqti keladi-da, Usta chanqaydi. Biz qora ish bilan bo'lib, Ustamizning chanqashini o'ylab ham ko'rmaymiz. O'zi, qora ish aslida bunaqa nozik sezgilarga ko'p ham o'rin qoldirmaydi. Usta faqat ezgu hayollar, yuksak, mas'ul maqsadlardan bahra oladi, bizga o'xshagan oddiy ishchilargina ochqaydi, chanqaydi, deb fikr qilamiz. Keyin, Ustaning nima ichishini ham bilmaymiz. Gulob, atirgul suvi, xullas, qandaydir aqlimiz etmaydigan ichimlik kerak unga, bunaqasini topish qo'limizdan kelmaydi, deb o'ylaymiz.

Sobir uning gapi qayoqqa burilayotganini bilmay diqqat bo'ldi.

— Ana shunda, Usta ayni chanqagan paytda Avvalboy paydo bo'ladi, qo'lida...

—Arman kon yagi,—dedi Sobir topag'onligidap o'zi zavqlanib.

— Mana, sizning xatoingiz qaerda. Fikrlaringizning andazasi hayotga to'g'ri kelmaydi. Ishlab chanqagan odam kon yak ichadimi? Choy, oddiygina,



o'zimizning yaxna choy, suv emas, choy. Ustaning chanqashiga mo'ljallab, damlab, piyolaga quyib sovutib turish kerak. Buni faqat Avvalboy eplaydi. Ustaga choy tutish oddiy ish emas. Buning uchun odamda alohida bir farosat bo'lishi kerak. Avvalboyning yuragida Ustaga nisbatan shunday bir mehr borki, bu mehr ustaning ko'nglini bir chirmab, Ustaning mehri bo'lib yana Avvalboyning o'ziga qaytadi. Nozik, iskabtopar bir mehr. U siz — qora ishchida yo'q, o'lib-tirilib ishlayverib, bu tuyg'uni o'ldirib yuborgansiz.

— Endi nima qilishimiz kerak?—dedi Sobir to'rsayib.

— Hech narsa, — dedi u. — Ishimizni qilaveramiz.

— Avvalboyning oshig'i olchi bo'laverar ekan-da,—dedi Sobir go'yo Avvalboyning oshig'ini u olchi, qilib berayotgandek.

— Olchi bo'laveradi.

— E-e, yo'q, men bu matalingizga qo'shilmayman. O'ziga emas, Avvalboy haqidagi joyiga.

— Ixtiyoringiz, lekin...

— Ishning og'irini biz qilaylik-da, huzurini Avvalboy ko'rsin!

— Unda choyni kim uzatadi?

— Choyni ham o'zimiz uzatamiz.

U kulib yubordi.

— Avvalboyni nima qilamiz unda? Siz qo'ygan g'ishtni Ustaga u uzatib tursa, o'zingiz chetga chiqib qolasiz-ku?

— Hammasini o'zim qilaman.

— Siz choy tutishni eplolmaysiz. Usta sizning loyga belangan qo'lingizdan choy ichmaydi. Choy uzatiladigan qo'l mehnatda qavarmasligi kerak. Siz qo'pol qo'lingiz bilan piyolani tushirib yuborasiz-da, bu ko'rgan kuningiz ham holva bo'lib qoladi.

Yo'q, u hech qachon direktorning polini yuvmas ekan. Yuvolmas ekan.

— Ha, Avvalboyning bu tomoniga tan berish kerak,— dedi Sobir.— Boplaydi lekin. har qanday odamning ko'ngliga yo'l topadi. Dissertasiyasida direktorning ishlaridan sitata shuncha ko'p ediki...

— Nega?— dedi u ajablanib.— Domla bari bir oldirib tashlaydi-ku.

— O'qib ko'radimi, axir. O'chirishdan oldin Avvalboy uni qanday ko'kka ko'targanini o'qiydi-ku.

— Zo'r. Qoyil, — dedi u hissiz bir ohangda.

— Buyam siz aytgan mehr, choy tutish,— dedi Sobir.— Hali qarab turing, Avvalboy shu Ustangizning qiziga ham uylanib oladi.

Uning ko'ngli birdan g'ashlandi. Pastlashib ketgandek, maydalashgandek bo'ldi. To'satdan o'ziga-o'zi yomon ko'rinib ketddi.

- Oshirib yubordingiz endi, - dedi va Sobirning ko'ngli uchun o'z ixtiyoriga qarshi qo'shib qo'ydi: - Hech zamonda xo'ja xizmatkorini boshiga ko'tarmaydi. Kuyov o'g'ildan baland izzatlanishini unutmang. Avvalboy direktorning polini yuvadi-yu... qandayiga...

U gapining davomini aytmadi, direktordan uyalib ketdi. Nazarida, direktor ularning gapi ustiga kelib qolib: "E o'g'lim-a, man sani ilmiy ish qilyapti, dissertasiyasini yozyapti, juda iste'dodli yigit, deb yursam, san bu erda..." deyayotgandek bo'ldi.

Shu paytda telefon jiringladi. U xonasiga chopdi.

Yo'q, qo'shni xonadagi telefon ekan.

Sobir uning ortidan kirdi. U o'zini ishga berilgan ko'rsatib, royish bermadi. Bir ozdan keyin Sobir chiqib ketdi.

Bu ahvol juda ko'p takrorlangan.

Negadir odam huzur bilan g'iybat qilasan-u, keyin negadir ko'nglingda juda noxush bir sezimlar uyg'onadi, o'zingdan-o'zing irgana boshlaysan.

Bema'ni ran. Uyida bo'y etgan qizi bo'laturib, direktor xo'kizdek, begona erkakka polini yuvdiradimi?!

...Avvalboy jiqqa terga botib, ko'ylagi ko'tarilib, oppoq, bikqqi beli ochilib pol yuvyapti.

...moldek to'rtoyoqlab turgan Avvalboyning oldida oxurdek tog'ora...

...Avvalboy hansirab, kir latta bilan...

U nafratlanib ketdi, Avvalboydan emas, o'zidan, Avvalboy haqida shu hayolga borgan o'zidan.

Yo'q, bo'lishi mumkin emas! Direktor domla, ustoz sifatida shogirdini ezib ishlatar, ammo odamni bunday xo'rlamaydi. Avvalboy chalasavod, xomkalla, xushomadgo'y, boring-ki, fikr o'g'risi hamdir, lekin—odam, Odam, axir! Uni odamlilik shanidan mahrum qilishga hech kimning haqi yo'q. Agar direktor Avvalboydek choytutarini bunaqa xo'rlaydigan bo'lsa, menga o'xshagan o'zibilarmon, o'zibo'larmonlarni toptab tashlardi. Men ham borganman-ku, uyiga. "E, o'g'lim, san kichiksan-u, lekin manikida mehmonsan", deb choyni o'zi damlab kelgan, hatto suzishga ham qo'ymagan, o'zi suzib, unga choy uzatgan. Uydagilarning hammasi kelinning otasinikiga qndirib ketishgan ekan. Direktor ikkalasi o'shanda uch choynak choy ustida (hammasini direktorning o'zn damladi—juda kichikfe'l odam ekanmi, deb o'ylagan edi o'shanda) bir dunyo gaplarni gaplashib olishdi. "O'g'lim, sanga o'xshagan yoshlarning eng katta kamchiligi o'zboshimchalik, kattalarga xurmatsizlik emas, laqillash. Olim bo'laman, degan odamga hech to'g'ri kelmaydigan narsa ham shu. Hozir hech narsani

o'yla may, faqat ishlaydigan, faqat mehnat qiladigan paytlaring. Ho' keyin, mana, bizlarga o'xshab qariganlaringdan so'ng xohlaganlaringcha laqillashlaring mumkin. Lekin, shu kuchga to'lgan, tog'ni talqon qiladigan paytlaringda umrni laqillash bilan o'tkazib yuborsalaring, bizday vaqtlaringda nimani laqillashni bilmay, bir gapni to'tiday takrorlab, yoshlarga kulgi bo'lib yurasizlar. Sangabu gaplarni bekorga aytayotganim yo'q ”.

Sobirga o'xshaganlarning bir ishni boshlab, halolab bitkazishi gumon, lekin birovga loy chaplashga tushsa, shunday qilishadiki, tukqqan onasi ham taniyolmay qoladi.

Borib turgan yolg'on! Avvalboy xohlaganda ham, direktor uning bunaqa suyakalishiga yo'l bermaydi.

Qiziq, aslida o'ylagan, gapirayotgan odaming yaxshi bo'lishi mumkin, ko'pincha yaxshi ham, lekin sen unga kayfiyatingga qarab baho berasan, kayfiyating yomon paytda o'sha odam ham ko'zingga juda yomon ko'rinadi, bironta yaxshi tomonini ko'rmaysan, ko'rolmay qolasan...

Sobir Avvalboyni yomon ko'radi, boshqalarga ham yomon ko'rsatishga tirishadi. Avvalboy ham, nafsilamrini aytganda, yaxshi emas. Lekin direktorning polini yuvishi—yolg'on. Buni Sobir to'qigan, bu gapni ko'p takrorlayverganidan o'zi ham ishonib qolgan.

Shu gapning yolg'onligini u bilmaydimi? Biladi. Ishonmaydi. Lekin bu ran o'ziga yoqadi. Sobir yana bu gapni chaynaganida, ayniqsa, Avvalboyning yaqinda yoqlashini aytganida, battar yoqib tushdi. Shu yolg'onning rost chiqishini tilandi. Har xil yo'llar bilan menga o'xshagan umidli yoshlardan o'zib, oldin yoqlar ekanmi, marhamat qilib, direktorning polini yuvsin, deb Avvalboyning ustidan hukm chiqardi. Avvalboyni hayolan xo'rladi. Odamlilik shaniga tegindi. Shu istak bilan kichikfe'l direktorii qoralab yubordi.

Zavqlanganiga qarang!

Shoirlarga o'xshab ilhom bilan naql qilganiga qarang. Bildiki, naql qilsa ishonarli bo'ladi. Chunki naql degan narsada ko'pchilikning nomidan hukm chiqariladi, har qanday fikr ishonarli, qonundek bir tus oladi.

O', senga o'xshaganlardan direktor chiqmasin —Sobirni eshakday ishlatasan, Avvalboyga... choy tashitasan!..

Hali ham kamtarligingga balli. “Usta o'zimman”, deb yuborishdan o'zingni zo'rg'a to'xtatib qolding. Uyatdan ham ozgina bor lekin.

Har kim ham o'z hayotiga Usta ekanini, o'z imoratiga o'zi g'isht qo'yib, o'zi loy qorib, o'zi tiklashi•ni bilmasmidig? Bilasan. Lekin qora ishdan qochasan. Faqat... o'zingga-o'zing ehtirom bilan choy tutib o'tiraverasan.

Oq uyim bor emish...

U derazani lang ochib yubordi. Issiq havo ichkariga yopirildi. Havo ham shunaqa bo'ladimi-ya, derazani yopib o'tirsang, qaynab ketasan, ochsang — yonasan.

Endi telefon qilmasa kerak. Ismini aytmagani, adresini bermaganidan ma'lum edi-ya, o'zi. Nimasini kutyapti? Lekin nega qiz uning telefonini yozib oldi? Yo keyin ortiqcha xiralik qildimi? Yo'q. Faqat "Ismingizni aytmadingiz ham", dedi. "Ismimni ko'chada aytmayman. Yo sizga ko'chada qolgan ism kerakmidi?", dedi qiz. "Qachon telefon qilasiz?" degan so'roviga "Kuting", dedi. "Yo telefon qilmaymi?" deb jilmaydi. g'amzamidi yo masxaramidi, bari bir, shirin edi.

Kuting.

Kutasan.

Mana, kutyapti.

Yo'q narsani kutayotgan bo'lsa-chi?

O'sha qizni tramvayda uchratish rostdan ham tushga o'xshab ko'rindi. Birdan dunyo o'zgacha bo'lib qoldi. Qizlarga gap otishni o'ziga ep bilmaydigan odam, har qanday tortinishni yig'ishtirib qo'yib, albatta shunday bo'lishi kerakdek, qiz ham shuni kutib turgandek ran qotdi, qiz uning ahvolini tushundimi yo siltab tashlashga botinolmadimi, to'g'ri javob qildi. Uch bekat gaplashib ketishdi. Qiz tushib qoldi. Bo'lgan voqea. Endi tushga o'xshab qoldi. U qizning na ismini biladi, na adresini, na qiz o'zini bildiradi. Shunday ekan, qizni qayta ko'rmasa, u telefon qilmasa, uni ko'rgani o'ng edimi, tush edimi, bari bir, xotiraning tushdan nima farqi qoladi?

Naxotki telefon qilmasa?

Uning yuragi orziqib ketdi. Ezildi. YAna chekkisi keldi. Koridorga chiqsa, bironta hamkasbga duch kelib qolishini o'ylab, xonasini ichkaridan qulflab olib tutatdi.

YAna telefonga ko'z tikdi: kim bilandir gaplashgisi keldi. Trubkani oldi.

— Alyo, salomalaykum... Karimova... ha, Zuhra, ishdami?., Iltimos!

"Sizga ko'chada qolgan ism kerakmi?" Nima degani bu? Ikkalamiz xoli uchrashganda aytaman, demoqchimidi?

Hozir, ayni shu Zuhra bilan gaplashayotgan paytda o'sha qiz telefon qilib qolishi mumkinligini o'ylab, shartta trubkani qo'ydi. Zuhraning nari yoqdan telefonga kelishini kutmadi: ran chuziladi.

"Kuting", deganida aldamayotgandek edi shekilli. Yo aldadimikan? Hay, qizning bekorga umidvor qilayotganini o'shanda sezganida ham nima qila olardi? Qo'lidan tutib, tramvaydan tushishiga qo'yasmidi? Iloj qancha? Endi kutishdan boshqa chora yo'q. Kutish o'ziga kerak. Shuncha yildan beri axtarayotganini endi topgandek... Axtarayotganmidi o'zi? Yo axtarayapman, deb laqillab yuribdimi?

Telefon jiringladi. Hali trubkani olmayoq, telefon qilayotgan o'sha qiz emas, Karimova, ya'ni Zuhra ekanligini sezdi.

— Ha, men... Salom, o’rtoq Karimova... Ha, men edim... Uzilib qoldi... O’zim shunday... Kino-pinoga tushsakmi, deb keyin o’ylab qaragam...— U jo’rttaga, eshittirib esnadi.— Bilmadim, yaxshirog’i yo’q shekilli... Bemaza, yasama... Ko’rmam ham bilaman, otidan ma’lum... Qo’ying shu “Muhabbat va qasoslar”ni... Yoqmaydi menga... Yo’g’-e, nega siz bilan borgim kelmas ekan. O’zim telefon qildim-ku sizga. Gapingizni qarang... Yaxshiroq kino bo’lsa-da... Keladi, kepgolar... Obbo, meni chaqirishyapti-ku.— U eshik tomonga qarata: “Majlisgami? Hozir, hozir”, deb qichqirdi.— Mana, kotiba qizimiz... Yo’q, sizdek chiroyli emas... O’zim telefon qilaman. Bo’pti.

Yaxshi emas shu. Umuman birovni o’yin qilish yaxshi emas.

Qo’shilib qo’shilolmasang, uzilib uzilolmasang...

Lekin qaysi qizning ismi ko’chada yotibdi? Zuhraning nimasi yomon? Kelishgan. Yuzi chiroyli. Odamning ko’ngliga qaraydi. Mehribon, keyin... Faqat sa-al... Nima bo’pti shunga?

— Ya-ax-shi emas!

Anov qizaloq ham telefon qilmadi endi. Xo’p, deylik, umuman telefon qilmaydi. O’sha uchrashuv tush edi. Tushida bo’lgan edi. Qiz o’tib ketgan tushdan telefon qilmaydi-ku. U nimani yo’qotdi? Hech narsa. Tushda topgan narsasini yo’qotganiga ham odam kuyinadimi? Aksincha, yaxshi bo’ldi — tushida shunday ajoyib bir qizni ko’rib qoldi. Yaxshi-da.

Ish vaqti tugadi.

Chiqaverishda uni Sulton aka tutib qoldi.

— Ketmay tur. Sobir bilan Rahmon ham chiqsin.

— Ja vaqtim ziq.

— Uyga bormasang, nima, xotining urisharmidi?

— Bir joyga o’tishim kerak.

— Puling yo’qmi? Qo’rqma, men olaman.

— Ishim juda zaril, Sulton aka.

— Hech odamga qo’shilay demaysan. Bir joyda ishlagandan keyin bunaqa bo’lmaydi. Odamlarga qo’shilish kerak. Qachon qarasa bir bahonani g’udurlab...

Bugun shunday qilma. Bir ko’ngil yozib...

— Direktorni g’iybat qilamizmi?..

— Ey bola, menga qara! To’xta, deyaqman...

U portfelini qo’ltiqqa urib, jo’nab qoldi. Sulton akaga qaray olmadi.

Bunday demaslik kerak edi. Og’zidan chiqib ketdi. O’tirishga direktorning nima aloqasi bor?.. Boshqa iloj ham yo’q edi-da. Bo’lmasa, qo’yib yubormasdi. Aslida boshqa jiddiroq bahonani ro’kach qilishi kerak edi-ku-ya...

Men yoqib qolgan emishman unga. Albatta yoqaman-da. Men ham sizday mast bo'lib, yo'limda yurolmay qolay-da, o'ligimni so'kishlarimga chidab, uyimga olib borib qo'ying, sizni ham albatta yoqtiraman.

Ichishadi. Ko'pincha Sulton akaning puliga. U ham bir-ikki marta noilojdan, Sulton aka qistayvergandan keyin, "odamlarga", ya'ni ularning ichishiga qo'shilgan. Sulton aka oshxonaning katta stakanini to'ldirib-to'ldirib ikki marta otadi-da, ko'zi peshonasiga yopishib, tap-tayyor bo'ladi. Rahmon aka bilan Sobir asta ko'zg'alishadi. Sobir kam ichsayam, bahonasi tayyor — kech borsa, uyidagilari... Rahmon aka — katta, yoshi ulug'. "Endi, uka, bizlar shu yoshimizda katta ko'chada etaklashib yursak yarashmaydi. Shahar! Sultonboyning ahvolini ko'rib turibsiz. Yana yo'l-po'lda... ko'p ichsayam, o'zi zo'r olim. Hali sizga ko'p foydasi tegadi. Yaxshilikni erda qoldirmaydigan odam". Sulton aka tamom o'chgan bo'lsa-da, o'zini birov olib borib qo'yishini sezib, shuni kutib bir muddat jim o'tiradi. Keyin u "o'zbekning kichigi" bo'lib, og'zidan bodi kirib, shodi chiqayotgan Sulton akani yosh boladek avrab, ko'chadagilardan ming hijolatda, uyiga etkazib borguncha ona suti og'zidan keladi... Yo'l-yo'lakay o'zi ham so'kishga bo'kadi: Sulton aka kim esiga tushsa, bulg'aydi: "He o'shani... Nega so'kmas ekanman?! Nima sani pulingga ichdimmi? He saniyam..."

Shunaqa odamlarning oshqozoni qanday chidar ekan?

Shu sassig'i bilan borib xotining oldiga yotadimi?

Avtobus izma-iz kelibdimi, har qalay, bekatda odam sanjob edi.

Avtobusga chiqayotgan mahali negadir bir kampir unga xavotir aralash o'qrayib qaradi. Arpangizni xom o'rdikmi, kampirsho?

Avtobus yurishi bilan birdan mushukning ayanchli miyovlashi eshitildi. U seskanib o'sha tomonga o'girildi. Bir xotinning tizzasidagi sumka ichidan mushukning kallasi chiqib turardi; ko'zlari g'alati, ko'kish tovlanadi, odamga to'g'ri qaraydi: odam bir gunoh qilgan-u, hammadan, hatto o'zidan ham bekitib yurgandek, mushuk buni biladigandek, "hali javob berasan!" deyayotgandek— odamning ko'ngliga sovuq vahm o'rimalaydi.

— Bechoraning qorni ochibdi,—dedi mushukning egasiga yonma-yon o'tirgan ayol.

Mushuk tumshug'ini cho'zib, yana miyovladi.

Bu la'nati muncha zorlanadi?

Xotin mushugining kallasini siladi:

— Manechka! Uyat emasmi senga! Jonginam! Odamlar seni odobsiz ekan, deb o'ylashadi.

Mushuk xotinning qo'lini iskaladi-da, yana miyovladi.

— Oti Manyami! Qarang-a, qanday chiroyli ekan,— dedi yonma-yon o'tirgan ayol.— Sho'rlikning uyquasi kelganga o'xshaydi.

— Manechka, senga nima bo'ldi? To'polon qilma.— Xotin ko'zlarini yolg'ondakam olaytirib, mushukka tanbeh bergan bo'ldi.— Qani, janjalni to'xtat-chi. Jinday chidash kerak. Uyimizga yaqin qoldi.

— Juda yaxshi mushuk ekan-da,—deb ayol ham mushukni silashga qo'l cho'zdi.

Xotin tirsagi bilan mushugini panalab, go'yo beixtiyor qilgandek, ayolning qo'lini qaytardi, bidirlab ketdi:

— Benzin hidi yoqmayapti-da, tannoza. Salgina noxush hidga chidamaydi. Toza havoga o'rgangan. Ovqatni ham saylab eydi. Ko'ngli shunaqa nozik. Bir marta bilmay turtib yuborgan ekanman, shunga uch kun araz qilsa bo'ladimi! Siz ishonmaysiz, biram aqlli.

Xotin shunday deb mushukning tumshug'idan o'pib qo'ydi.

Ularga ro'baro' o'tirgan odam—tanqa burun, mo'ylovining uchlari tepaga qayrilib, naq qulog'igacha borgan erkak, mushukparvarlik tomoshasiga anqayib qarab kelayotgan edi, xotinning mushukni o'pganini ko'rib, birdan iringandi: “E topgan matahingga...” deb g'o'ldiradi, so'kish og'ziga tiqilib qolgandek, bo'g'riqib ketdi. Uning yonidagi ozg'in, qo'llari kalta engidan chvpdek osilib turgan, ingichka mo'ylovli yigit: “Ing qilgisi kelayotgandir”, deb hihiladi.

Xotinning rangi bo'zardi, yomon tus oldi.

— Qanday madaniyatsiz odamlar!—deb pichirladi va gapini tasdiqlatishni kutib, yonidagi ayolga qaradi.

Ayolning yuzlari qizardi, xotinning gapini eshitmaslikka olib, oyna tomonga o'girildi.

Tanqa burun erkak, agar xotin yana bir og'iz gapirsa boplab so'kadigan alpozda baqrayib qarab turaverdi. Ozg'in yigit tirjayib bir xotinga, janjalga ximo bergandek, bir erkakka ko'z soldi, ko'rdiki, ikkalasidan ham sado chiqmayapti; xafsalasi pir bo'lib, u ham oynaga yuz burdi.

Uning tushishiga ikki bekat bor edi, lekin avtobus to'xtagan dastlabki bekatdayoq tushib qoldi. Tanqa burun erkakdan battar bo'g'ilib ketgan edi.

Mushuk teginan idishning tashlab yuborilishi, mushuk iskagan qozonning kuydirilishni esladi. O'zi ham mushukni o'lguncha yomon ko'rar edi.

Xotin mushukning og'zidan o'pdi-ya.

Odamga mehr degan tuyg'u nima uchun berilgan?

Mushukka bag'ishlash uchunmi? Mushuk bilarmikan shuni?

Bu qanaqa dunyo o'zi?!

Xonasi huvillab yotardi.

Uyning xo'jayini hozir qay bir do'konning oldida, ajriqqa gazeta to'shab, o'ziga o'xshagan “olamzodning gullari” bilan pivoga portveynni aralashtirib

simnryapti. Yarim kechasi keladi-da, uning xonasiga kiradi (uy ikki xonali). “E, o’qiyotganmiding”, deydi, go’yo uning har kun oqshom kitobdan bosh ko’tarmasligini bilmaydigandek. Kechirim so’raydi. “Gaplashgnm kelyapti”, deydi. “O’qish kerak. Shu ishing yaxshi. Qishlog’ingdan ota-onangni tashlab, shaharga odam bo’laman, deb kelganingdan keyin, albatta, o’qi,—deydi; mast, lekin gapidan adashmaydi, aksincha, ichmagan paytlari og’zidan ran chiqmaydigan odam, ichsa, notiqligi tutadi,— Man ham oldinlari ko’p o’qir edim. Anavi bitta kitob bor-u, oti nimaydi? Yigit bilan qiz ikkovginasi soy bo’yida, jiydaning tagida, a!.. Tepasida ona mayna sayrab turadi. To’lib-toshib sayraydi, imenno, to’lib-toshib. Ha, ishing besh bo’lgandan keyin, tepangda mayna sayraydi, bedana vavaqlaydi. Maniyam tepamda bir vaqtlar maynalar rosa sayragan... Endi... bitta tullak chumchuq ham nazarga ilmaydi... o’qi, mayli. Hozirdan kallani ishlat. Uylanayotganda xushyor bo’l lekin. Uylanganingdan keyin bundan ham xushyor bo’l. Odam hamma narsani yasashi mumkin, lekin turmushni yasolmaydi. Qaytangga turmushning o’zi odamni yasab tashlashi mumkin. Shuning uchun boshdanoq xotinning yaxshisini tanlash kerak. Yigit odamning hayotda bir marta omadi keladi — buyam bo’lsa, uylanganida. Hammasi xotinga bog’liq. Shuning uchun yaxshilab tanla, deyman. Yaxshi, deb yomonini olishing mumkin, yomon deb yaxshisini. Lekin yomoniyam, ichmasang, o’zingni xor qilmasang, yaxshilik qiladi. Mana, mandan misol — ahmoqman. Xotinning yaxshisi adashib menga tushib qolgan, bilmaganman. Ichi-ib yuraverganman.

G’ing desa, urganman. Lekin... yaxshi xotin edi, yaxshi edi. Man nima bo’ldim endi? Sani nimaga ijaraga qo’ydim? Pul uchunmi? Yo’-o’q, pulni topaman... agar xohlasam. Pulga qiziqmayman. Ichishim kerak, aslida ichmasligim kerak, lekin ichishim kerak. Kerak! Cog’lig’imdagi turmush—turmush emas. Turmushni boy berib bo’lganman. Esimga tushishidan qochib yuribman. Hamma narsani sotib ichdim. Lekin, mana, shu shimni sotmayman. Xotinim tug’ilgan kunimga sovg’a qilgan.

O’ttiz sakkiz so’mu etmish ikki tiyinga olgan. Tangalab yiqqan, man ichgan aroqlarning shishalarini sotib... Oldingi narsalardan faqat shu qoldi. Sira yirtilmaydi-ya, qara. Oldin chiqqan narsalar shunaqa pishiq bo’lar ekanmi...” Xotinidan keyin albatta bolalari esiga tushadi, ko’zi yoshlanadi: “Farzand nimaligini hali bilmaysan. Qizim gilamga siyib qo’ysa, uy siydik hidi bo’lib ketdi, bolalarga qaramaysan, deb xotinni urardim. Hozirlari esa... e uka, ishonmaysan-da, shu siydik hidini ham sog’indim. Bolangniki bo’lgandan keyin...” Keyin o’zi yaxshi, lekin bolalarini ko’rishga g’ov bo’ladigan xotinini yomonlaydi: “Nima bo’lsa ham shu bolalarning otasimanmi? Sog’inaman. Nima, ichadigan odamda yurak bo’lmaydimi? Bolalarni sog’inib borsam...”

“Kelmang, tarbiyasini buzasiz”, deydi. Bilaman, ikki bolasi bilan unga ham oson emas. Bizdan oladigan yigirma to’qqiz so’miga nima ham beradi? O’zining oyligi... qiyin, albatta. Haligacha boshqa turmush qilgani yo’q. O’zim yarashay deyman-u, lekin yana qo’shilsak... Bo’lmaydi-da, uka. Turmush shunaqa. Endi biznikining buyog’i ma’lum. Tamom yutqazganmiz”. Keyin hamisha oshnalarini



so'kadi, keyin yana o'zini so'kadi, shu bilan vijdonini sal-pal tozalab oladimi, uning taqdiri to'g'risida qayg'urib qoladi. "E, manga qara, tashla shu boshog'riqni. Bir umr kitobga termilib o'tasanmi? Bari yolg'on. San... o'zing yoz. Mana, mani yoz. Aytib turaman, yozib olaverasan. Katta kitob qilamiz. Agar san to'g'ri yozib olaversang, zo'r ibratli kitob bo'ladi. Hamma o'qiydi. Mayli, o'qisin, bu dunyoga Vohid degan bir odam kelib, dunyodan hech narsa ololmay o'tib ketayotganini xalq o'qisin!.. Endi san Vohid deb yozmassan, otimni boshqa qil, Zohid de... Yo'q, Zohid to'g'ri kelmaydi, akamning oti. Shunga uyqash bir ot top-da. Balki Ahad deysanmi?.. Otimni to'g'ri qo'ysang, icholmay qolaman... Manavi qobirg'aning tagida ko'p gaplar yotibdi, o'nta yozuvchiga etadi. San yozsang bo'ladi. Qo'lingdan kelmaydimi? Keladi. Odam qilgan ishni odam qiladi. Tuppa-tuzuk yigitsan, kallang ishlaydi. Ichmaysan. Manga olib berib tursang bo'ldi. Doim yoningdaman. Ey, manga qara, shu yozuvchilarning kitobiga qahramon qidirib Mirzacho'lga borishar ekan. Sanga yaxshi bo'ladi-ku: hech qayoqqa bormaysan—mani tilimdan yozaverasan. Hammasini o'zim aytib tursam... Lekin kitob yozamiz, deb manga qo'shilib ichib ketma. Maylimi? Zo'rlasam ham ichma. Ichib ketsang, yozuvchi tugul, shimildiriq ham bo'lolmaysan.. Sani sohang nima o'zi, psixologiyami? Bo'lmag'ur yumushni qo'y, uka. Hali hayotni ko'rganing yo'q, psixologiyani qaydan tushunasan. Mana, mani psixologiyamni aytib ber-chi? Aytolmaysan. Bir piyonistada nima ham psixologiya bor, topganini ichadi, hech vaqosi yo'q, deb o'ylaysan. Lekin manavining tagida,—deb u yana ko'kragiga nuqiydi,—psixologiyaning zo'ri ber! Saniki ham psixologiyami? Mani o'rnimda bir kun, mayli, bir soatgina yashab ko'r — keyin bilasan haqiqiy psixologiyani! Psix bo'p qolasan... Qalay, bopladimmi? Bu kalla,— ko'rsatgich barmog'i bilan chakkasini nuqiydi,—haliyam ishlaydi... E, ichmaganimdami... Sanga o'xshaganlar bilan gaplashib ham o'tirmasdim. Ichib shu ahvolga tushdik-da..." Eng oxirida xalaqit bergani uchun ming uzr so'raydi: "To'lib ketganimdan kirdim-da, uka. Bo'lmasa, ishing tig'izligini bilaman..." Ertalab uning yuziga qaramay, g'o'ldirab boshog'riqqa bir so'm so'raydi, bu pulni hech qachon qaytarib bermaydi — ijara haqidan chegirib tashlaydi — hammasi qaytadan boshlanadi, har kuni ahvol shu. Dardi-holi ham, voqealarning o'rni almashib tursa-da, doim bir xil; faqat xotini sovg'a qilgan shimning bahosi yigirma sakkiz so'mdan qirq sakkiz so'mgacha — xotinini qanday kayfiyatda tilga olishiga qarab, o'zgarib turadi, biroq nima uchundir, tangasi doimo bir xil — etmish ikki tiyin.

Padarla'natning uyida bir vaqtlar telefon ham bo'lgan, lekin pulni to'lamaganidan keyin uzib qo'yaverishgan, keyin o'zi qo'shnisiga pullab yuborgan.

Telefondak ajoyib narsani qo'ldan chiqazgan-a!

U kiyimini echmay karavotga cho'zildi. Kun bo'yi ketmon chopgandek xorg'in edi.

Aravasiga minganingdan keyin qo'shig'ini ham aytasan.

O'ttizga borayotgan odamning o'z uyi bo'lishi kerak. Bu yoshlarda odam endi o'z orzularinigina boshpana qilib yashay olmaydi, orzu qilish uchun ham yashash

joyi tayin bo'lishi kerak. Yotishda tayin bo'lmagandan keyin, orzuda tayin qoladimi?

Yigirma sakkizga chiqqan yigitning bola bo'lib bola emasligi, katta safiga kirib, katta deyishga arzigulik birona ishning uddasidan chiqmaganligi ajoyib.

Qo'liga biron marta ham tesha ushlamagan Usta, oq uyingni qachon qurasan?

Odam harakatsiz yotaversa, kallasiga bo'lmag'ur fikrlar kelaveradi.

“Bolam, ikki narsadan odam kasal topadi: biri — xudo bergan darddan, ikkinchisi — o'y o'ylashdan.— Onasi bu gapni ham ko'p takrorlaydi.— O'y o'ylashning tabibi yo'q”.

Odam ham qariganidan keyin o'tgan umrini birbir xotiradan qayta o'tkazib, ma'nisini dono-dono gaplarga tizib chiqadi shekilli? Bo'lmasa, o'qimagan, ma'lumotsiz kampir bunaqa gaplarni qaydan topadi?

U og'ir qo'zg'aldi. Bir muddat yo'l qarab o'tirdi. Nazarida, o'zi ham hayotining, tamoman bo'lmasa-da, ko'p narsasini boy berganga o'xshardi. Boy berilgan narsalar juda qadrli edi.

Borib derazani ochdi. Iliq havo barobarida shahar shovqini ham yuziga urilgandek bo'ldi. Shahardan nimadir bir yaxshi tuyg'u ham keldi.

Muyulishda burilayotgan tramvayning g'iyqillashi yurakka sanchilgudek eshitildi.

Shu tramvay ham yurgani-yurgan. Peshonasiga mana shu izdan chiqmaysan, deb bitta raqamni taqib qo'yishgan, tinmay borib-keladi. G'iyqillaganig'iyqillagan.

U o'zini umr bo'yi bir yo'ldan chiqmagan tramvayning o'rniga qo'yib ko'rdi, lekin xursand bo'lmadi.

Bari bir, shahar shovqinida nimadir, hayotni bezaydigan, ey, ezilib yotaverasanmi, yashasang-chi, mundoq, degan bir chorlov bor edi.

Kun o'tib ketyapti. Nimadir qilish kerak! Dangasamanmi? Unda dangasalikdan qiynalmasligim, kunim o'tganiga shukur qilib, oyoqni ko'tarib yotaverishim kerak edi. Men esa noshukurman. O'zimdan noroziman. Bu yurishimdan, hayotimdan noroziman. Ammo, qiziq, bu noroziligim yashashimga xalaqit bermayapti, qandaydir o'ng'ay: harakatsiz yotsam ham, bu harakatsizlikdan noroziman-ku, deb o'zimni oqlayman; sovuq kunlarimda norozilikni po'stin qilib kiyaman-da, uning ichida bo'g'riqib, issiqqina yuraveraman.

Keyin, odamning o'zini-o'zi yomon ko'rishida ham xudbinlik bor. Gap burnim sassiq deb kesib tashlay olmaslikda ham emas. Odam o'zini yomon ko'rsa ham, allaqanday shafqat, ayash, mehr bilan, ba'zan esa zo'r odamni yomon ko'rgandek hurmat bilan yomon ko'radi. Yana ham kim biladi: kuchli odamlarning o'zini yomon ko'rishini, doim o'zidan, hayotidan norozi bo'lishini shu bilan izohlash mumkindir. Lekin kuchli odamning noroziligi — harakat.

Albatta, uylanish kerak. U ham dunyoda toq o'tmoqchi emas. Butun tirik mavjudotning hayoti juftlashishga qurilgan ekan, u ham bu qonundan bo'yin tovlamaydi.

Lekin...

Ex! Sevsang-da!

O'rtanib, kuyib, yonib, butun vujuding bilan qa-at-tiq sevsang!

Sevgi ko'ksingda qamalib yotgan isyonni shivirlaydigan imkonga aylansa...

Yorilib ketayozgan ko'nglingga taskin berib, sekin-sekin, osuda-osuda shivirlasang Unga...

Sokin hayqiriy bilan, to'yib yig'lagan odamdek engil tortib shivirlasang Unga...

Sovuq, dildirab turgan cho'qqingdan uning mayin, iliq ko'ngliga qulab tushsang...

Daming qaytib ketsa sevgidan...

Yuraging gur-r etib alanga olsa...

Sevganga yarasha...

Lekin...

Seni mana shunday telba-savdoyi qiladigan o'sha qiz qani?

Kimligini, qaydaligini bilmaysan-u, ammo kutasan. Sabr-toqat bilan.

Kelmasa-chi? Kelsa ham, Zuhraga o'xshagan qiz bo'lsa... Balki kecha o'zim telefon qilaman, deb umidlantirgan qiz ham zuhralarning biridir...

Bor umringni tikib, halloslab, jon-jahding bilan yugurgilab izlaganing shunchaki yigitligingga uchadigan, qachon yoqlaysiz, deb hol-joningga qo'ymaydigan oddiygina qiz bo'lib chiqsa-chi!

Balki u yo'qdir, uyqusiz tunlari hayolingda yaratgandirsan. Balki o'zing Unga munosib emasdirsan. Orzudagi qizga orzudagidek yigit kerak-ku. Kim biladi: ehtimol o'zing haqingdagi tasavvuring ham faqatgina orzudir...

Ehtimol kechagi qiz ham o'zi orzu qilgan yigitni axtarib yurgandir. Yigirma beshlarga chiqqan ekan, gaplari burro-burro, ehtimol, senga o'xshaganlardan og'zi kuygandir...

Ehtimol Uni ko'rib, tanimagandirsan; sen Undan, U sendan bexabar, ikkalang ikki tomonga: U—katta dunyoga, sen — tor yo'lagingga, o'tib ketgandirsizlar..

U shalag'i chiqqan, o'rindig'i botib ketran kursida mung'ayib o'tirar edi.

Tashqarida shahar shovqin solardi: ko'tarilib-pasayib turgan g'ala-g'ovur, bolalarnin? qiyqirig'i, ora-sira bolasini chaqirgan ayollarning qichqirig'i — shahar yashayotgan edi.

Quyosh botib borar edi.

U talabalik paytlaridagi ustoz, “valine'mati” va kattalar orasidari eng yaqin do'sti — Husainovni ko'rib kelishga otlandi. Husainov malaka oshirish, o'z ta'biri bilan aytganda, “challasavodlikni bitirish” kursiga kelgan.

— Salom, o't,— dedi Husainov.

— Yo'q, o'tmayman.

— O'tmasang, nega kelding?—dedi Husainov qandaydir bir yaxshi tabassum bilan.

— E-e, o'ting-da, endi. Ostonadan qaytib ketasizmi,—deb qistadi Rasulov — Husainovning hamxonasi.

— Qo'yavering, fe'li shunaqa, o'zining aqliga borib etmasa, o'tmaydi,—dedi Husainov.

Husainov, bari bir, uning kelganiga quvongan edi.

— Rustam aka, kinoga boraylik,—dedi u Husainovga.

— Hozir-a?

— Seansga qirq minut bor. Ulguramiz.

Husainov kiftini uchirdi.

— Juda bo'g'ilib ketdim,—dedi u o'zi ham kutmagan holda; shu gan og'zidan chiqani hamono rostdan ham bo'g'ilib ketganini birdan chuqur angladi.— O'zimni qo'yarga joy topolmay yuribman.

Husainov bir lahza uning ko'ziga ajablanib tikildi-da, Rasulovga o'girildi:

— Boramizmi?

— E-e, bizdan nima ketdi? Qanaqa kino ekan?

— Bari bir emasmi,— dedi u, ularni ko'ndirganidan shodlanib.— Ekrani yorishsa bo'ldi-da.

Rustam aka juda yaxshi odam-da.

U shunday deb o'ylagani sayin Husainovning yanada yaxshi bo'lib ko'rinayotganini, Husainov haqida yaxshi fikr yurita boshlagani uchun o'zi ham yaxshilanib, kayfiyati ko'tarilayotganini his qildi. Biz hozir unsiz muloqotdamiz, deb o'yladi u, men unga bir yaxshi tuyg'u yo'llayapman, u ham menga shunday bir yaxshi tuyg'u bilan javob qaytaryapti.

“Yaxshi odamlarga yaqinlash,— deb takrorlaydi onasi.— Yaxshi odam dilingga dil qo'shadi.” Yo'q, chindan ham, kampirlar bunday gaplarni qaydan topishadi?

— Nega tirjayasan? — dedi Husainov. — Kelib odamlarning tinchini buzasan-da, yana tirjayasan.

— Esimga bir narsa tushib qoldi,— dedi u, tavba, kulganimni o'zim ham sezmay qolibman, deb ajablandi.

Husainov kiyinayotib po'ng'bladi:

— Uylanish kerak, ukam. O'shanda o'zingni qo'yarga joy bo'ladi.

— Ha-ha, u joydan keyin chiqolmay qolasiz,— deb kuldi Rasulov.

— Bu nima yurish? He yo'q, be yo'q, yur kinoga emish. Ekran yorishsa bas ekan.

— Puldan qalaysan? — deb so'radi Husainov ko'chaga chiqishganda.— Bizni kinoga sudraganingdan keyin, pulini o'zing to'larsan.

— Unda sizga yalinib kelmasdim. O'zim ketaverardim,— dedi u yasama beparvolik bilan.— Bizdek g'ariblarni sizdek rahnamolar qanotlari ostiga olmasa...

— Ko'p aljirayverma.—deb uni gapdan to'xtatdi Husainov, xushfe'l bir kayfiyatda cho'ntagini kavlab.

— Polapon degani birovning qanoti ostida o'sishi kerak-da,—dedi u.

Xoin bir istak uninr nigohini bari bir Husainovning qo'liga qaratdi.

— To'g'ri, to'g'ri.—deb uning gapini tasdiqladi Rasulov.—Rustamboy, shunday yigitlarni qanotlaringiz ostiga olmasangiz, kimni olasiz.

Husainov chuntagidan bitta yigirma beshtalik chiqardi:

— Ma, bizga o'xshab dosent bo'lganingda qaytarasan. Aslida senga o'zi bir tiyin ham bermaslik kerakku-ya.

— Shuyam pul bo'ldi-yu,— dedi u hijolatini chapanilik bilan bosishga urinib.— Cho'ntakda yo'qolib ketadi. Bir marta restoranga kirishga ham etmaydi. Yana, qaytarasan emish. Dosent bo'lgunimcha saqlab yuramanmi?

— Yuraver shunday. Restoranga kir, qizlarning ketidan chop, kostyumingning narxi yuz so'mdan kam bo'lsa, kiyma. Ishingni esa qishloqdan otang soqolini selkillatib kelib yozib beradi.

— E-e, bo'ydoq odamga pul chidamaydi,— dedi Rasulov, uning yonini olibmi, Husainovning gapini ma'kullabmi...

...Otasi, atrofida ko'p ruscha kitoblar, yozuv mashinkasini chiqillatib uning dissertasiyasini yozib beryapti. Mashinka chiqillashiga monand soqoli selqillaydi: "Etalon gruppalarda sosial status problemasiga asrimizning umumiy konseptual matrisasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu problemaning rasional mag'zi..."

Shuni tasavvur qilib kulib yuborgan edi. Husainov bir oz ranjidi, kinoteatrga etguncha nasihat qildi, Rasulov jo'r bo'ldi, u esa boshini ham qilib, indamay eshitib bordi.

Rustam akaning nasihatida yigirma besh so'mining alami yo'qmi? Yo'g'-e, o'zining kallasiga ham bo'lmag'ur fikrlar kelaveradi. Endi, Husainov ham shu bolaning ishi yurishib ketsin, deb kuyinadi-da.

Fil m tugadi.

Kinoteatrdan to katta ko'chaga chiqib, odamlar selgiguncha jim ketishdi. Rasulov ikki-uch marta unga, Husainovga qarab qo'ydi, jimlikni buzishga botinolmay, indamadi.

Fil mdagi tomosha hayotga har kim o'zicha borib keladimi, odam, har qalay, tomoshaga birga kirgan sheriklariga betona bo'lib qoladi shekilli, fil m tugab, kinoteatrdan chiqqandan so'ng ham ulardan g'alati suratda yotsirab turadi.

Salom, og'aynilar! Tanishaylik, men oldindan bilaman — biz do'stlashib ketamiz, degisi keldi uning.

Xuddi shunday bo'lishi kerakdek, baravariga tutatishdi. U gugurt chaqdi: hovuchining ustida avval Husainovning ozg'in yuzi, keyin Rasulovning barkashdek yuzi yorishdi, ikkala yuz ham unga boshqacha ko'rindi — go'yo yo'ldoshlari undan qandaydir xayrli ish, yaxshilik so'rayotgandek, u esa gugurt chaqish bilan ularni yoritgandek, shu bilan xayrli ishni boshlab yuborayotgandek tuyuldi.

O'zining ko'ngli ham baayni maktab daftaridagi bosma qog'oz singari siyohdek tomgan bu yaxshi tuyg'uni zum o'tmay shimib oldi, shu tuyg'uning tiniq rangiga bo'yaldi.

Qorong'ilikning qorong'iligi shundaki, u hamma narsani yashirib turadi, hech narsani ko'rsatmaydi. Balki bizning kunduzimiz ham to'la kunduz emasdir, undagi hamma narsa ham ko'rinavermas? Kunduzimiz yanada yorishsa, biz hali bilmagan yanada yaxshi narsalarning yuzi ochilar? Derazadan quyosh nuri qiya tushsa, uning yorug'ida uy changning har bir zarrasigacha yaltillab ko'rinadi. Kunduzimiz yanada yorishsa, osmon boshqacha, ranglar yanada ravshanroq tuyularmide, ko'zimizga havo ham ko'rinar mide?..

Mana, Rasulov bilan Husainovning yuzi ko'cha korong'iligi uchun ko'rinmayapti, ikkalasining o'rnida sigaretalarning yaltiroq qurtdek ikkita cho'g'i yiltirayapti. Ilgari ularni ko'rmaganda, shakl-shamoyillarini ojizgina yiltirayotgan cho'g'dangina iborat deb bilarmide? Hozir ularni fikran ko'ryapti.

Fikrlashning o'zi ham — yorug'lik ; fikr fikrlaydigan odamning ko'ziga ko'rinmaydigan narsalarni ham ko'radi. Mana, hozir u korong'ida ham Husainov bilan Rasulovning ko'ngillarini ko'rib boryapti. Ular, har qalay, yaxshi narsalarni o'ylab ketishyapti.

Rasulov birdan ran qotdi:

— Yaxshi kino ekan-a?

— Rostdan ham, yaxshi ekan,— dedi Husainov.

U o'rtamiyona ishlangan fil mdan dam olib, engil tortishini o'ylab ham ko'rmagan edi. Charchog'i yozilib, tanasi yayrab ketdi.

Tasavvurida: boshi toza suv to'ldirilgan dumaloq akvarium kabi tip-tiniq: ikki-uchta fikrlari esa o'zidan yorug'lik taratadigan rangli baliqchalardek farog'at bilan suzib yurar edi.

Qanday yaxshi! Mayin, salqin havo og'ushida, yoningda seni yoqtiradigan, sen uchun kuyinadigan oqqo'ngil hamrohlaring bor. Na sen ularga tobesan, na ular senga. Oddiy, insoniy munosabat — toza. Hech kim hech kimga yomon qaramaydi, bir-birini g'iybat qilmaydi.

Diling ravshan, yuraging sanchmaydi, hech joying og'rimaydi, oyoq-qo'ling bus-butun: istasang yurasan, istasang — yugurasan — yaxshi!

Hamrohlarining ovozi unga olidan eshitilayotgandek edi. Xuddi qorong'i chorbog'ning nariyog'ida, devor ortida u haqda ikki kishi g'o'ng'illab gapirishyaptiyu u eshitmayapti, ammo eshitmasa ham, o'zi haqida yaxshi gaplar bo'layotganini aniq ko'rib turgandek...

Oraliqdagi havo quyug'lashib, hamrohlari juda kichrayib qolgan, so'zlari ham, uchar qo'ng'izchalar singari, uchib kelib uning qulog'iga urilgach, kirolmay yana qaytib ketayotgandek tuyuldi. “Anavinisi... Dogmatik yigitmi... O'suvchan xarakter... Mantiqiy me'yor... E-e, Zuzuning fe'l-atvori... Ha, tuzuk... E-e, masalaning bu tomoni ochilmagan...”

Kutilmaganda uni ham suhbatga tortishdi.

— Buyuk psixolog bunga nima deydilar?—dedi Husainov.

U ko'chaning yoritilgan joyiga chiqib qolishganidan norozi bo'ldi. Qorong'ilik — o'ylashga o'ng'ay, ko'ngilni fikrlarning o'zi yoritaveradi, faqat qorong'ilikda albatta ko'zni ochib o'ylash kerak.

— Buyuk psixologmi?— U bir zum gap topolmadi.— Buyuk psixolog o'zidan buyuklarning fikrlari mag'zini chaqish bilan band.

Hazili yaxshi chiqqanidan o'zi ham xursand bo'lib, ko'ngli bir yaxshilik bilan yorishib ketdi.

“Yur,— dedi Husainov o'zlari turadigan yotoqqa etib kelishganda.— Choy-poy ichib ketasan. Yo uyingda xotining oshni suzmay, seni kutib o'tiribdimi?” “Yaxshi bo'lardiku-ya,— dedi u.— Menga tegadiganini onasi o'psammi, o'pmasammi, deb turgan emish. U kattarguncha qorinni to'yg'izib turaylik-chi”. “Yashang,— dedi Rasulov.— Rustamboy, shu ukangiz menga juda yoqib qoldi-da. Sira gapdan yutqizmaydi”. “E, bundan faqat ran olasiz. Mirzaquruq,— dedi Husainov.— Yurishi — bu, lekin sirtiga suv yuqtirmaydi”. “E-e, odamning shunday ochiq bo'lgani yaxshi”, dedi Rasulov.

Rasulovning xotini eriga mehribon, yana buni qarangki, juda pazanda ekan — qo'y go'shtini yog'iga qovurib, bitta sirlangan satilga bosib, qo'yarda-qo'ymay, berib yuboribdi. “E-e, qo'y-e, katta shaharda taqirlatib satil ko'tarib yuramanmi, Toshkentda ham oshxona ko'p desam ham ko'nmadi. “O'zingiz emasangiz, hamxonalarangiz er”, dedi”.

Lekin, haqiqatan ham, Rasulovning xotini go'sht qovurishning hadisini olgan ekan! Ugo'shtni maqtab-maqtab edi. Qorni ochligi uchunmi, umrida bunaqa go'sht emagandek tuyuldi. Ko'p eganidan hijolat tortib, Rasulovga jinday xushomad

qildi: “Xotinning pazandasi — oilaning farog’ati-da. Bu ham bir baxt”. Bu gapdan Rasulov, go’shtni o’zi qovurgandek, ancha taltaydi, to’la yuzlariga mamnun bir ifoda yoyildi. Husainov kulib yubordi: “Xuddi noudda xotindan kuygandek gapirasana”, dedi. “E-e, bu kishi uylanmasalar ham oila nimaligini yaxshi tushunar ekanlar”, dedi Rasulov. “Xotinning qadri o’tgan-da”, deb xaxoladi uning o’zi, lekin gapidan ichida uyalib ketdi. “Yo’q, menga qara,— dedi Husainov,— rosti ran, sen bola bironta beva-mevanikiga qatnaydiganga o’xshaysan”, “Hech o’xshamayman-da”, dedi u qizarib.

“Ha, shunaqa,— dedi Rasulov hazil-huzuldan keyin.— Yoningda bo’lsa, xotinning qadri bilinmaydi. Komandirovkaga chiqqanda yo hafta-o’n kun mehmonlab ketganda xotinni sog’inasan odam. Shunda ham doim o’ylab yurmaysan, yo’q., birdaniga — ko’chadami, avtobusdami yurganingda, birdaniga esingga tushib, ko’rging kelib qoladi. Yo’g’e, Rustamboy, unaqa niyatda emas. Kulasiz-a. Bu — boshqa narsa... Shunday payt-larda hamma ishinni tashlab, osmon uzilib erga tushsa ham uyga qaytaman. Qilgan ovqatidan tortib bolalargacha sog’inaman. Lekin, qiziq, uyga kirib, xotinimni ko’rganimdan keyin, hayron bo’laman: shu xotinim, bolalarimning onasi, nega buncha sog’indim, nega shoshildim — tushunish qiyin. Ovqatni tushiraman-da, hech narsaga qaramay, yotib uyquni uraman. Uyqudan turib qarayman: hammasi o’sha-o’sha — xotin ham, bolalarning shovqini ham, ovqat ham. E-e, maza qilib dam olib yurmaymanmi, uy qochib ketarmidi, deb xunob bo’laman”, “Boshqalaridan to’yib borsangiz kerak-da?, deb iljaydn Husainov. Rasulov qizarinquiradi: “To’g’risini aytsam, bu masalada... O’zim ko’p qiziqmaymanmi yo menga qiziqishmaydimi, ishqilib, bu yo’ldan ko’p ham yurmaganman.—Rasulov duv qizardi.— To’g’risi, uylanganimdan keyin umuman yurmaganman”. “Rostdan-a?!” deb Husainov chindan ajabladi. Rasulovning lolarang tus olgan yuziga mayda ter ko’pchidi: “Kim biladi,— deb g’o’ldiradi,— hech shunga qiziqish bo’lmagan. Aytyapman-ku, o’zim qiziqmayman, deb. Yo’g’asam, erkak odam...— Keyin birov uni shu yo’lga boshlayotgandek, nimagadir qarshilik ko’rsatib, sal jahllanib,— e-e, biz shu xotin bilan qanoat qilamiz”, dedi. “E-e, yaxshi-ku,— dedi Husainov negadir o’ng’aysizlanib.— Buning nimasidan uyalasiz? Erkak odamning o’z xotindan sovimasligidan ham yaxshi narsa bormi!”

“Oldin sevishib, keyin turmush qurganmisizlar”, deb so’radi u, gapining quruqligidan o’zi ham o’ng’aysizlanib, “E-e, qayoqda,— dedi Rasulov go’yo hafsalasi pir bo’lgandek qo’l siltab.— Ikkinchi kursdallgimda uylantirib qo’yishgan. Qishloqchasiga. Sakkizinchi sinflarda o’qib yurganida bir-ikki ko’rgan edim-u, endi, u payti shunga uylanaman, degan hayol ham bo’lmagan. Kichkinagina qizcha edi. E-e, keyin ham sal bo’yi o’sdi-yu, lekin bari bir, kichkinaligicha qoldi. Zoti oriq. Shu-u, ikkinchi kursdaligimda boboy:“Qariyapman”, deb boshni qotirdi, momoshka “lip etib birov ilib ketmasdan shu qizga hay degin”, deb miyani qoqib qo’lga berdi. Men ham boshqalar ilib ketaman, deb tursa, yaxshi narsa ekan-da, quruq qolmay yana, deb shartta rozilik berib yuboribman. E-e, o’shanda to’g’riyam qilgan ekanman. Mana, haligacha biron marta xotindan norozi bo’lmadik. Ishonasiz-mi, shuncha yildan beri biron



marta cho'ntagimni kavlamagan". Husainov uncha ishonmadi: "Sizga bildirmay kavlar?", dedi. "E-e, nima deyapsiz,— dedi Rasulov bir oz qizishib.— Necha martalab sinaganman". "Xotinning pulga beparvosi bo'lmaydi,— dedi Husainov.— Bir hisobda, erning pulini tekshirib turgani ham tuzuk. Bo'lmasa, biz erkaklar ne noma'qulchiliklarni qilmaymiz". "Sinadim, sinadim, qarasam, pulga teginmaydi,— deb gapida davom etdi Rasulov.— Keyin-keyin, qancha topsam, hammasini qo'liga beradigan bo'ldim. Shu yaxshi ekan, Rustamboi, pul xotinning qo'lida tursa, bekorga xarj bo'lmaydi". "Endi, bu qanday xotinligiga bog'liq,— dedi Husainov.— Bir xil xotinlar borki, qo'liga bir so'm tegsa, darrov magazinga chopadi, pul desa o'zini tomdan tashlaydi. Bunaqalarga pul tutqazib bo'ladimi? Erini xonavayron qiladi-ku. "E-e, bizning xotin,— dedi Rasulov,— bir tiyinni ham beso'roq sarflamaydi. Lekin, masalan, o'zim ham uni o'z holiga tashlab quymayman-da. Qani, xotin, ayt, nima olib beray, nimadan kamchiliging bor, bolalaringga nima kerak, deyman. To'g'rimi? Xotin o'zirniki, deb unga qaramay qo'yish ham insofdan emas-da".

U Rasulovni yoqtirib qoldi. Bir oz to'poriroq, yoqasi g'ijim, galstugini yog' bosib yuradigan shu sodda, dilcash odamga havasi keldi — baxtli ekan, dunyodan zerikmay, hasrat nimaligini bilmay o'tadi. Lekin juda ko'p "e-e" deyaverar ekan.

Husainov Rasulovning gapidan zerikdimi yo biron narsa esiga tushdimi, birdan xomushlandi. Suhbatga boshqa aralashmadi, choy damlab keldi-da, soatiga qarab, unga: "Kech bo'ldi, bugun yotib qolaver", dedi. U bosh chayqadi.

U kvartirasiga jo'nadi.

Kelsa, uyning xo'jayini yo'q.! Shunaqa kunlar uchun joningni bersang ham arziydi!

Maet odamning izhori dilini tinglashdan ham og'irroq ish bormi dunyoda? Sen ham mast bo'lsang, mayli edi. Mast — sen yashayotgan uyning egasi bo'lsa, ustiga-ustak sendan boshqa odamga "yurak sirlari"ni ochmasa, bu ham etmagandek, seni o'zicha hurmat qilsa. Ikki gapning birida buni ta'kidlab tursa. "Men sendan o'n yosh kattaman-u, lekin oldingda, xuddi sen akamdek, dovdirab qolaman", deb tursa. Albatta, bu gapni doim aytmaydi, lekin aytgandan keyin odatda pul so'raydi...

Tun yarmidan oshib, shahar tinchigan, jimlikni ora-sira katta tezlikda o'tib qolgan mashinalarning shuvillashi buzar edi. Deraza ochiq qolgani uchun uyning havosi toza, salqin. To'yib-to'yib simirgning keladi.

Bugun rostdan ham boshqacha kun.

Jin ursin hamma tashvishu yo'q erdagi hasratlar-ni! Shuncha yoshga kirib ham qanaqa odamman, deb ikkilanib yursang. Ichingda, ko'nglingning tub-tubida o'zingning yaxshi yigit ekanligingga ishonasanu, yana buni albatta boshqa birov — ichingdagi boshqa bir odam isbotlab berishi shartdek, axtarinib yurasan. Qanaqadir jo'shqin faoliyatsizlik.

Odam o'zini yaxshimanmi, yomonmanmi, deb qiynamasligi kerak. Sababi: oxir-oqibat javobi bitta bo'ladi — hech kim o'zi haqida yomon xulosaga kelmaydi. Men xomkalla, ahmoqmzn, bo'ring tishi, arining nishiman, yo'q, itning keyingi oyog'iman, deb o'zini-o'zi rosa so'kadi-yu, keyin bu so'kishlarni yo'qqa chiqaradigan sabablar axtaradi, hamma ayblarini turmushga, boshqa odamlarning uddaburonligiga ag'daradida, o'zini oqlab oladi. Obdon oqlagandan keyin qarasa, o'zi yaxshi odam ekan; unga etisholmagan, unday bo'lolmay yurgan odamlar qancha? Shunday ekan, ikkilanishni bas qilib, qandayligingga qaramay, yaxshi ishlarga birdaniga tutinavergan ma'qul. Shunda, yomon bo'lsang ham, o'z-o'zidan yaxshilanib ketaverasan.

Eng asosiysi — ishonch. Yilt etgan yorug'liksiz zulmat bo'lmaydi. Zulmatga emas, o'sha yorug'likka qara. Odamga ko'z faqat kunduzi yurish uchun emas, kechasi — zulmatda yo'l topish uchun ham berilgan. Ataylab ko'nglingni shabko'r qilma.

Sen qizni ham topasan. Nega topmas ekansan? Shuncha qiynalishlaring evaziga uni albatta topasan.

Qizlar bilan do'stlashding. Masturani eslaysanmi, qandoq qiz edi! Aka-singildek yaqin edilaring. Hamma sirlarini senga aytardi. Akrom degan hamqishlog'i sovchi ustiga sovchi yuborib hol-joniga qo'ymayotganini, onasi esa, Erkin degan qarindoshiga tegasan, deb majburlayotganini gapirardi. "Akrom akani har kuni ko'raman, avtobusda kuzatib keladi, o'qishdan qaytishimda kuzatib ketadi. Faqat uzoqdan. O'zi kelib bir og'iz gapirsa nima qiladi, a? Hadeb sovchi yuboraveradimi? O'z qadrini o'ylamaydi-mi? o'zim gapiray, desam uyalaman. Rahmim keladi. Avtobusda mana bunday g'o'dayib oladi.— Mastura o'sha Akrom degan g'o'dayganning turishini ko'rsatib, o'zi ham kulib yuboradi.— Yigit ham shunaqa bo'ladimi?.. Erkin bilan birga o'qiganmiz. Yomon bola emas. Maktabdan keyin ham odamga o'xshab salomlashib yurardik. Shu, onam bilan onasi kelishib olgandan beri, meni ko'rsa, bir chaqirimga qochadi. Ko'rolmayapman. Bir gapirib tashlardim. E, erkak, kim uylanmoqchi: senmi, menmi... Qarang, kimlarga duchorman: bittasi gung, yonimda, unisining tili bor-u, lekin hech tutqich bermaydi..." Keyin, umuman erga chiqishni xohlamasligini, toza havolarni, baland qirlarni, keng dashtlarni, qattiq shamollarni yaxshi ko'rishini soatlab hikoya qilardi: "Sizlar tomon dasht, a? Hay, dasht bo'lmasa ham, dashtga yaqindir? Meni olib borsangiz, dashtga chiqsak... Qattiq shamol tursa! Odamni uchiradigan zo'r shamol bo'lmaydi-da, a? Shu dashtga chiqqanimda shamol meni uchirib ketsa-da, keyin uzoq.-uzoq olib yurib, asta hech kim yo'q bir joyga qo'yib ketsa... Uchirmasa ham, qattiq essa, mayli. Faqat changi yomon-da, a? Toza bo'lsa-da..." To'ptinchi kurs oxirlarida Mastura o'sha tutqich bermas Erkinga turmushga chiqdi. Erkinboy Masturaning yo'q deyishidan qo'rqib qochib yurgan ekan. Fotiha qilinganidan keyin o'zini tuppata-tuzuk ko'rsatibdi, binoyidek tili ham bor ekan. To'ylariga gala kursdosh bir bo'lib bordinglar. Sizlarni kutib olishga chiqqanda Mastura sal-pal yig'lagandek bo'ldi, qizlar uni kulib-kulib, havas bilan ovutishdi. To'ydan keyin Mastura hafta

o'qishga kelmadi, kelganidzn keyin esa ilgarigi Mastura emas, mutlaqo boshqa — erlik juvon bo'lib keldi. Aka-singillik munosabatlaring ham birdanigz barham topdi. Uning senga aytadigan gaplarining vaqti o'tibdi, yangi gaplari esa senga atalmagan edi. Xuddi Mastura senga bevafoqlik qilgandek. Mayli, erga tegsin, lekin hozir shartmidi, bitirganimizdan keyin turmushga chiqsa bo'larmidi... hozirdan ro'zg'orga o'ralashib... xullas, shunaqa mujmal bir alam uyg'ondi ko'ksingda. Masturadan senga nima kerakligini o'zing ham bilmasding. Ayni paytda, Mastura turmushga chiqib, senga begonalashgach, axir, kunduzlari darsda uxlab qoladigan kelinchak, o'zi ham uylansa bo'ladigan yigit bilan uyqusining sababi haqida gurunglasholmaydi-ku, qandaydir erkinlikka chiqqandek his qilgansan. Qizlar bilan yurishga erk beradigan erkinlik. Xadicha... seni Masturadan rashk qilgan va Masturaning senga jiddiy ko'ngli bo'lganligini va buni kursdagi hamma qizlar bilganligini va seni lattalik qildi, deb o'ylashganini va uning o'zi, ya'ni Xadicha munosabatlaringning xuddi shunday tugashini oldindan bilganligini va sabr bilan kutganligini va, nihoyat, endi sen o'ziniki ekanligini ko'zlari yiltillab aytib bergan va seni, seni tamomila o'ziniki qilib olishga tayyorligini bildirgan... Ana o'shanda sen Masturaning toza havolari ham, baland qirlari ham, keng dashtlari ham, qattiq, shamollari ham yakkayu yagona o'zing bo'lganligingni to'rt yil kechikib bilgansan. Bilgansanu Xadichadan ham o'zingni tort-gansan... Masturadagi ayrim belgilarni O'g'ilyo'da ko'rgandek bo'lib, u bilan ham bir oz yurib ko'rgansan. Keyin Sabiha... Keyin ko'nglingda bo'm-bo'shlik boshlangan. Sen bilan yurish ularga yaxshi saboq: bo'lganmi, keyin bu qizlarning hammasi turmushga chiqib, baxtini topib ketibdi. Ulardan birortasini ham yomon yo'lga boshlamagan eding, birortasini baxtli qilmaganing kabi, baxtsiz ham qilmading. Endi Zuhra... Bu ham qaraydi-qaraydi, keyin hafsalasi pir bo'lib, turmushga chiqadi-ketadi.

Qizlar senga orqavarotdan “avliyo” degan laqab taqishgan. Yo'q, sening avliyoliging qoldimi? O'n ol-ti yoshli yigitgina muhabbatda avliyo bo'ladi. Sening yoshingdagi yigitlarning muhabbatiga ancha-muncha narsalar ilashgan chiqadi.

Lekin, bari bir, poksan. o'sha qizning oldida poksan. Sevsang — poksan. Sevgi hamma narsani poklaydi. Balki o'sha qiz ham senga o'tmishidan poklanib peshvoz chiqar?..

Uni shuncha yil mushtoqlik bilan kutganingni, yurgan qizlaringni, ko'ngling bo'm-bo'sh bo'lib, bu bo'shliqni hech narsa bilan to'ldirolmaganingni uning o'ziga birma-bir so'zlab berasan.

Sekin-sekin, osuda-osuda, yuraging alanga olguncha, tafti uning ko'zlariga o'tguncha sokin hayqiri bilan shivirlab so'zlaysan.

Undan hech narsani yashirmay, hammasini aytib berasan.

Mahublar o'rtasida aytilmagan ran qolmasligi kerak Aytib beraver. Sevgan qiz mahubbi haqidagi gaplarni boshqalardan emas, og'ir bo'lsa ham, uning o'zidan eshitish zarur. Faqat jasoratli odam emas, gunohini jasorat bilan tan olgan ham — mard.

Har qanday ish ham albatta yakun topadi. Kutish ham. Izlash ham. Azob ham. Qolaversa, baxt ham.

Ertadan, o'ringdan turiboq yangi hayotni boshla. Senga dissertasiya faqat yoqlash uchun kerak emas-ku, bu ham — borligi noma'lum narsani izlash. Olimlik ilm haqida gapirish bilan emas, ish bilan boshlanadi.

Yurasanmi sobirlarga qo'shilib, avvalboylarni g'iybat qilib. Atrofingga ko'zingni kattaroq ochib qara. Sulton akadan yozg'irasan, uni ham tushunish kerak. Yaxshi odam, lekin hayotda unga ham nimadir alam qilgan, nimadir uni chetlab o'tgan. Usta bo'lishga uringan-u, nimadir etishmagan, ishqilib, endi ilmda yashay boshlaganida ko'nglining qaeridir darz ketgan-da, shu ahvolga tushgan. Yo'q;sa, se-ning yoshingda u ham qandaydir katta narsalarni kutgan.

“E-e,—deydi onang,— bu dunyoda, ishqilib, odamning baxti qaytmasin; bir qaytgandan keyin...”

“Baxt odamga birdan kelmaydi, bolam,— deydi dono kampir.— Asta-asta keladi: narvonga birdan chiqmaysan... Lekin ketganini bilmay qolasan...”

Hikmat. YAshash ilmi sening dissertasiyangdan chuqurrok..

Qara atrofga: odamlar ishlayapti. Hatto shu, Sobir ham, niyati faqat yoqlash bo'lsa ham, ishqilib, bir maqsadga tirmashadi.

Nega anov mushukparvar xotinni ko'rib asabing buziladi? Mayli, bu ham — bir ermagi-da. Sho'rlikning bolasi yo'qdir, turmushi buzilgandir, yolg'izdir, bu dunyodagi yakkayu yagona ovunchog'i, ehtimol, mushukdir. Uning ham nimagadir mehr qo'ygisi ke-lar...

Tabiat odamni mehrlil qilib yaratgan: o'zga vujudga bag'ishlashi uchun. O'zida mehrni to'plab, hech-kim, hech narsaga xarjlamay yurgan odam dard topadi. O'zini yomon ko'rish dardini.

Senga mehr ko'rgazganlar ko'p-ku. Yaxshi odamlar ichida yashayapsan. Sulton akaga qo'rs gapirib yuborganingning sababi ham, uning ertaga seni kechirib yuborishini bilganingda: u ham senga mehr qo'ygan. Husainovni ham o'zing qiynalgan paytingda yo'qlab borasan — bilasanki, u ham senga mehrini beradi.

Lenin o'zing hali birovga tuzukroq mehr ko'rgizganing yo'q..

Bu yomon!

Birdan u ishxonadagi telefonini o'yladi. Telefon jiringlayotgan edi, lekin tovushi qaydadir, yo'lda, shahar osmonining qaeridadir, xuddi qumloq-qa singib borayotgan jilg'adek holsizlanib, yo'qolib, bu ergacha etib kelmayotgan edi.

Shaharning qaeridadir uning tovushini eshitishga intiq bo'lgan o'sha qiz telefon trubkasini qulog'igaa tutgancha, krshlarini chimirib, ajablanib turib-di... Qayta-qayta telefon qiladi, xunob bo'ladi, “Qana-qa betayin yigit ekan, telefon qiling, kutaman, degandan keyin, kutmaydimi axir”, deb jahli chiqadi... “Adresini bilmasam, telefonimni aytma-gan bo'lsam, qiz boshim bilan uni qanday axtarib topaman?”, deb o'ksinadi...

Ishxonasiga borib kelsami?

Telefon tovushi xonasining eshigi, derazalari tirqishidan sizib o'tib, butun ishxonani to'ldiryapti, osmonga taralyapti — uni izlayapti.

Nazarida, telefon jon-jahdi bilan uni chaqirayotganidan hozir, mana, hozir darz ketadigandek tuyuldi.

Ishxonagacha bir soatlik yo'l. To etib borguncha...

Ertaga, ertaga...

U yana deraza oldiga bordi.

Yana bir mashina, oldidagi yo'lni chiroqlari bilan paypaslaganacha, xuddi qorong'ilikdan qo'rqayotgandek, erga pusib-qapishib o'tdi.

U derazaga orqa o'girib, xonasiga qaradi: o'zini to'rt devor bilan himoyalab olgan xona haddan tashqari beibo yorishib turgandek, uni masxaralayotgan-ek ko'rindi. U o'zida xonasiga nisbatan g'alati bir dushmanlik tuydi. Achchiq bir huzur bilan borib chiroqni o'chirdi.

Qorong'ilik lip etib o'zini ichkariga urdi, xonani ham, uni ham o'ziga qo'shib oldi.

Zulmat uning suyak-suyaklarigacha singib ketgan-dek, hatto fikrlarini ham bir tekis — qora, unsiz bir tusga bo'yab yuborgandek tuyuldi.

“Tun meni yutib yubordi.

Tun seni o'rab turgan hamma narsani o'ziga singdirib oldi.

Yolg'iz, yalang'och qolding, yuragim!”

Lekin deraza chorcho'pi yulduzlarga to'lib ko'rindi: yorug'lik elayotgan g'alvirdek...

U yana deraza yoniga bordi. Shahar ko'rinishidan boyagidek erkinlik tuydi. Kunduz yaxshi — odamlarni ko'rib turasan, ularning yuzlari yorishib turganini ko'rasan. Odam yorug'da turishi kerak. Odam yorug'da yurishi kerak.

Tun — yolg'izlik. Lekin tunda ham erda — chiroqlar, osmonda — yulduzlar: qorong'ilik juda-juda katta bo'lgani bilan, ost-usti g'alvir, barri ilma-teshik, bu teshiklardan zulumotni yondiradigan ingichka alanga tillari o'syapti...

To'qqizinchi qavatdan qarasang, sen hammadan yuksakda, tungi shahar esa poyingda sukut saqlab, senga tobe — farmon kutib yotgandek ko'rinadi.

Saharlab turaman-da, abadiy yashaydigandek o'ylab, ertaga o'ladigandek, shoshilinch ishga kirishaman, deb qat iy fikrga keldi u.

Ko'cha jimidi. Chiroqlarning yog'li nurida kunduz terisidek yiltirab, nimanidir kutib qoldi. Ko'cha chetidagi daraxtlar, simyog'ochlar, simyog'ochlardan tortilgan, chiroqlar tagidagi bir quloch-bir uloch joylari sarg'ish tovlanayotgan tramvay simlari ham, besh-oltitagina ko'zi qorong'ilikka alanglagan

uylar ham, hatto uchgan derazalar ham ko'cha kutayotgan mujdaga some bo'lib qotib turardi.

Ko'chani u boshidan yana bir mashina ko'rindi, o'zidan oldin engil shuvillashi keldi.

Hammasi havoyi gaplar — bugun hayotni qayta qurishga so'z berasan-da, ertaga kechagidek yashayverasan, deb o'yladi u, ko'nglining tub-tubidan o'rmalab kelayotgan ikkilanish bilan.

Yo'ldagi mashinaning chiroqlari o'chiq edi.

Lenin, bari bir, bugungi kun beiz o'tmaydi: ko'nglimda bugun nimadir engildi, nimalardir bosh ko'tardilar; ertadan qandaydir o'zgarishlar nishona beradi; odam bir narsani tubdan o'ylab olsa-yu, hech narsani o'zgartirmasa, yana shunday yashayversa... Yo'q, mumkin emas — ertadan nimadir yaxshi narsa bo'ladi, deb o'yladi u shikasta bir ishonch bilan.

Shahar yulduzli osmon ostida chiroqlarini pirpiratib, yashnab-yastanib yotar edi. Shu yotishida asotirlardagi juda bahaybat, juda ulkan jussali afsonaviy tirik jonzotga o'xshab ketardi — qandaydir xushfe'l, soddadil, xayrxoh... hozir esa horg'in sukunat qo'ynida tamshanib-tamshanib tush ko'rar, ahyon-ahyonda entikib, ko'zlari ochiq uxlari edi.